

YAPON TILIDA CHET TILLARIDAN O'ZLASHGAN KUNDALIK HAYOTGA OID SO'ZLARNING HOZIRGI HOLATI VA MUNOZARALI TOMONLARI

Nizomov Ulug`bek Raxmatullayevich

ToshDSHI, Magistratura 1-kurs

Linvistika yo`nalishi

ANNOTATSIYA

Maqola yapon tilida o'zlashgan so'zlar muammosiga bag'ishlangan. Maqolada ushbu so'zlarni ishlatilshi misollar yordamida tushuntirib berilgan.

Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va ma'suliyatimizni yo'qotsak bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zibo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin¹.

I.A.Karimov

Yaponiya dunyo hamjamiyatida o'z o'rniga ega davlat hisoblanib, deyarli barcha mamlakatlar bilan ko'p sohalarda yaqin aloqalarga ega. Bu esa, o'z navbatida yapon tiliga ham ta'sir ko'rsatib, kundan-kunga yapon tilshunosligi leksikasida o'zlashma so'zlarning soni oshib bormoqda. Bunday so'zlarning kundalik hayotda qo'llanila boshlashi o'z o'rnida yapon tiliga ham ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Albatta, bu yerda tarixiy jarayonlarning ham o'rni kattadir. Ayniqsa 1868-yidagi *Meyji inqilobi*² dan keyingi davrlarda Yaponiya dunyo hamjamiyatiga ildam qadamlar bilan chiqdi, bu esa, Yaponiya deyarli 250 yil mobaynida "yopiq davlat" sifatida hayot kechirgan yapon xalqi bilan chet elliklar o'rtasida muloqotlarning imkoniyati yaratildi. Aynan shu muloqotlar natijasida yangi o'zlashma leksemalar vujudga keldi. O'zlashma so'zlarning ilmiy lug'ati ustida izlanish olib borish natijasida ingliz, golland, fransuz va portugal tillaridan kirib kelgan o'zlashma so'zlarning soni ko'p ekanligi ma'lum bo'ldi.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch - T.: "Ma'naviyat", 2008.6-bet.

² Meyji davri (1868 - 1912). "Meyji inqilobi" nomi bilan tarixga kirib, Yaponiyadagi katta o'zgarishlar shu davrga to'g'ri keladi.

Meyji davridan boshlab, chet tilidan kirgan o'zlashma so'zlar Yaponiyaga ommaviy ravishda oqib kirib, yaponlar quloqlari orqali eshitgan xorijiy so'zlarni shu holatida *katakana alifbosi*³da yozib, tilga qabul qilib keldilar. Ingliz tilidan kirgan o'zlashmalar o'zlashma so'zlarning asosiy qismini tashkil etib, yapon jamiyatiga kirib keldi.

Dastavval, o'zlashma so'zlarni katakana ifodasida o'zlashtirilayotganda:

- Bunga qadar Yaponiyada mavjud bo'lmagan narsa va tushunchalarni ifoda etish uchun o'zlashma so'zlarni katakana misolida aks ettirish (Masalan: 「^{kurisumasu}, クリスマス」

[rojdestvo], 「^{inta-netto}, インターネット」 [internet] kabilar)

- Chet tilidagi mutahassislikka oid atamalarni katakana misolida aks ettirish (Masalan: 「^{ozon}, オゾン」 [ozon], 「^{penishirin}, ペニシリン」 [pensilin] kabilar) kabi qoidalar mavjud bo'lgan.

Shu o'rinda yangicha ko'rinish hosil qilish uchun yapon tilidagi ba'zi so'zlarni katakana ko'rinishida boshqacha nomlash (Masalan: ^{shokugyoufujin}, 職業婦人 → ^{kyariau-man}, キャリアウーマン) ga ehtiyoj tug'ila boshladi. Ammo yaqin yillar davomida

internatsionalizatsiya kuchayib, yapon tilidagi o'zlashma so'zlar, ayniqsa, ingliz tilining qo'llanilishi sezilarli ortib bordi. Shu bois tartibsiz ravishda *katakana* so'zlar (o'zlashma so'zlar) hosil bo'lib keldi. Buning natijasida ingliz adabiy tilidan yaponcha ko'rinishdagi faqatgina Yaponiyada tushunadigan inglizcha so'zni farqlash qiyinchilik tu'g'dirib, xorijliklar bilan muloqot chog'ida to'siq bo'lib qoldi. Ushbu hol Yaponiya ichida keng tarqalgan bo'lsada, xorijliklar uchun tushunarsiz, asl ma'nosidan farq qiluvchi yaponcha ko'rinishdagi inglizcha o'zlashmalar ko'payishiga olib keldi.

Dunyoning barcha tillarida o'zlashma so'zlar mavjuddir. O'zlashma so'zlarning ba'zilari mahalliy so'zlar bilan qorishish holatlarini ham ko'rish mumkin. Odatda o'zlashma so'zlar fonetik, gramatik va leksik-semantik hususiyatlarini saqlab qoladi. Dunyo tillarining ko'pchiligida ikki ko'rinishdagi leksika mavjuddir:

- Mahalliy so'zlar;
- O'zlashma so'zlar;

Yapon tilida bu holat bo'yicha leksik ko'rinishlar 3 ta guruhga bo'lib o'rganiladi.

Mahalliy so'zlar (Vago) - anan kelib chiqishi yapon tiliga oid so'zlarga nisbatan qo'llanilib, “*hiragana*” alifbosi harflari bilan leksika ifodalaniladi.

³ Ikki kana alifbosidan biri. VIII asrdan to hozirgi kunga qadar qo'llanilmoqda. Bu alifboda o'zlashma so'zlar aks ettiriladi.

Misol sifatida:

- あきる — akiru
- ふるさと — furusato

Xitoy tilidan o'zlashgan so'zlar (*kango*) - bunday so'zlar "kanji" alifbosi orqali ifodalaniladi. xitoy hierogliflari orqali mahalliy so'zlarning "hiragana" alifbosidagi yozilishining qisqartmasi hisoblanadi. Bu esa, yapon tilidagi uzundan-uzun so'zlarning aynan bir belgi orqali qisqargan holda o'rganishga yordam beradi. Shu bilan birga yapon tilining o'ziga xosligini ochib beruvchi alifbo sifatida yapon tilshunos olimlari tomonidan tan olingan.

Misol sifatida:

- 科学者 — kagakusha
- 東洋学 — touyougaku

O'zlashma so'zlar (*gairaigo*) - chet el tillaridan yapon tiliga o'zlashgan so'zlar uchun yagona alifbo sifatida qo'llaniladi. "Katakana" alifbosi harflari qo'llaniladi. Bu esa, o'zlashma so'zlarni farqlashda muhim ro'l o'ynaydi. Misol sifatida:

- ピリオド — periodo
- マンション — manshon

Yuqorida leksik birliklar yapon tilini o'rganishda "hiragana", "kanji" va "katakana" larni bilish muhim obyektga aylanadi. Yapon tilida yozilgan bir tekstning o'zida barcha alifbo harflari qo'llaniladi, shuning uchun ham yapon tilini o'rganuvchilar bir vaqtning o'zida 3 ta alifboni mukammal darajada egallagan bo'lishligi talab qilinadi.

Xulosa tariqasida Katakana joriy etilishidan maqsad, yapon tilida mavjud bo'lmagan tushuncha va konsepsiyalarni qabul qilishda foydalanilgan bo'lsa, yaqin yillarga kelib, faqatgina bu xususiyatlari bilangina chegaralanibgina qolmay, ingliz tilidagi so'zlarni jamlab yaponcha ko'rinishdagi o'zlashma so'zlar yasashda ham keng qo'llanilishga olib keldi deya xulosa qilish mumkin. Misol uchun yapon tilida eshitish qiyin bo'lganligi sabab, atayin ingliz tilidagi so'zlarni jamlab yasalgan yaponcha ko'rinishdagi inglizcha so'zlarni aytish mumkin. Bu ayniqsa

「^{kyabakura}, キャバクラ」(和製英語: caba[ret] clu[b]), 「^{rabuhoteru}, ラブホテル」(和製英語: love hotel) hamda 「^{terekura}, テレクラ」(tele[phone] clu[b]) singari urf-odat munosabatlari bilan bog'liq terminlarda ko'zga tashlanadi.

Shuningdek, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek 「^{kyariau-man}, キャリアウーマン」 dan tashqari 「^{shokugyouanteijo}, 職業安定所」 → 「^{haro-wa-ku}, ハローワーク (hello work) (標準英語: employment agency)」, 「^{yuusenzaseki}, 優先座席」 → 「^{shiruba-shi-to}, シルバーシート (silver seat) (標準英語: priority seat)」 singari vaqt o'tishi bilan yapon tilida mavjud bo'lgan so'zlarning o'tmishdagi shaklini yangilash uchun ingliz tilidan o'zlashmalar qabul qilishga olib keldi. Bu kabi yapon tilida chet tillaridan o'zlashgan kundalik hayotga oid so'zlarning ko'payishi

nafaqat yapon tilini o'rganuvchi talabalarga hattoki, ingliz tilida passiv muloqot qiluvchi yaponlar orasida ham chet tillaridan o'zlashgan so'zlarning munozarali tomoni sifatida qarab kelinmoqda.

I. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”, 2008. -176 b.
2. Nokado Sachiko
野角幸子
Nihonshakayniafurerukatakanago
「日本社会にあふれるカタカナ語」新風舎、東京
(1998) p.54
3. Алпатов В. М. Япония: язык и общество.- М. “Муравей”, 2003.Стр.15.

II. Lug`atlar

1. 『学研国語大辞線』 1978 Gakkyu kokugo daijisen (“Ilmiy izohli katta lug`at”)
2. 『国語学大辞線』 1980 kokugo daijisen (Yapon tilini o'rganish katta lug`at)

III. Foydalanilgan internet saytlari

1. <http://www.abc-abc.net/wasei.html>
2. http://kokken.go.jp/public/gairaigo/teian2_tyuukan